

Strategik rejalashtirish subyektlari tomonidan qaror qabul qilishda qoʻllaniladigan usullar

Reja:

- 1.Strategik rejalashtirish subyektlari tomonidan qaror qabul qilishda qoʻllaniladigan usullar*
 - 2.Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi*
- Strategik dasturning mazmuni*

1. Strategik rejalashtirish subyektlari tomonidan qaror qabul qilishda qo'llaniladigan usullar

Strategik rejalashtirish prognozlar asosida qabul qilinadigan qarorlarni ko'zda tutadi.

Ishlab chiqish jarayonida qabul qilinayotgan strategik rejalashtirish qarorlari, bir-biriga bog'liq elementlar tizimini tashkil qiladi, chunki bu tizim juda ulkan va murakkab. Strategik rejalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, buning ustiga har bir avvalgi bosqich, hech bo'lmaganda, yana bir bosqichni hisobga olgan holda baholanadi va qayta baholanadi.

Tizim uchun ishlab chiqilayotgan strategik rejalashtirish ba'zi bir dinamik tizim sifatida qaraladi. Bu shuni bildiradiki, strategik rejalashtirish ko'rib chiqilayotgan tizimlarining ishlab turish sharoitlari uzluksiz o'zgaradi va tegishli tuzatuvlar ta'sirining yo'qligi uchun bu o'zgarishlar tizimga ta'sir ko'rsatadi;

Uzoq muddatli rejalashtirishni rad etish, yoqimsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ko'pgina firmalarning uzoq muddatli rejalashtirish bilan shug'ullanmasligiga sabab, bu firmalar rahbarlarining, tegishli ishlarni olib bormasligi natijasida o'z ishlariga keltiradigan ziyonni e'tirof qilmasligida emas. Uzoq muddatli strategik reja yo'qligi uchun rahbar tez-tez og'ir vaziyatlar bilan to'qnashadi. Keyingi davrni qamrab oluvchi uzoq muddatli rejalashtirish uchun esa vaqt qolmaydi.

Strategik rejalashtirish bunday vaziyatlar ro'y berishining oldini olishi mumkin. Strategik rejalashtirishning yo'qligi og'ir ahvolni yaratishi sababli, strategik rejalashtirish kishilar amaliy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishini kasb etadi. Bashorat, konsepsiyalar, dastur loyihalari va rejalar shaklidagi, strategik qarorlarni ishlab chiqishda tarkib topgan rejaviy ishlar, bunday maqsadlarga erishish va tegishli boshqaruv obyektlarining strategiyasini nazarda tutadi. Buni

amalga oshirish natijasida uzoq kelajakda tashkilotning unumli ishlab turishi, tashqi muhit sharoitining o'zgarishiga tez moslashuvini ta'minlaydi.

Shunday ekan, strategik rejalashtirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'rta va uzoq (1 yildan ko'p davr) kelajakka intilish;
- rejalashtirilgan tizimlarni aniqlab beruvchi, muhim maqsadlarni yechishda mo'ljalga erishish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon;
- hozirda va rejalashtirilgan kelajakda, mo'ljallangan maqsadlar, manbalar tuzilishi va hajmi bilan organik bog'lanishga erishish talabini yaratadi;
- rejalashtirilgan obyektga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ko'p sonli tashqi omillarning ta'sir etishi yoki ular harakatini bartaraf qilish hamda rejalashtirilgan tizimda strategik vazifani muvaffaqiyatli yechishda bu omillarning ijobiy ta'siridan foydalanishni hisobga olish;
- adaptiv xarakter, ya'ni rejalashtirilayotgan obyektning tashqi va ichki muhitda o'zgarishini oldindan ko'ra olish qobiliyati va uni ish jarayoniga moslashtirishdir.
- Tegishli boshqaruv subyektlarining amaliy faoliyati jarayoni sifatida qaraladigan strategik rejalashtirish, uning mohiyatini qamrab oluvchi o'z mazmuni, faolligi va strategik qarorlar, prognozlar, strategik dasturlar loyihalari va rejalarini ishlab chiqish muolajalaridan iboratdir.
- Strategik rejalashtirishning mohiyatini uning muolajalari ochib beradi. Makroiqtisodda strategik rejalashtirishning asosiy muolajalari quyidagilardan iboratdir:
 - strategik bashorat qilish (bashoratlarni ishlab chiqish);
 - dasturlashtirish (konsepsiya loyihasi, strategik dasturlar);
 - milliy iqtisodda turli darajadagi rejalarini loyihalash.

Bashorat qilish - kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar borishining ilmiy bashorati, taxminlarni tuzish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellaridir.

Boshqaruv ta'siri qanday natijalar berishi mumkinligini baholashda ulardan kutilayotgan qulay va noqulay oqibatlar qandayligini bilish, bashorat qilish, strategik rejalashtirishning boshlang'ich bosqichi sifatida nihoyatda zarur.

Har xil muqobil ish usullarini o'rganish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishda bashoratlar, odatda, bir qancha variantlardan tuziladi.

Bashorat, talab qilinadigan resurslarni oldindan aniqlash va baholash ratsional strategiyaning boshqarma qarorini tanlashga yordam beradi.

Strategik rejalashtirish - iqtisodni boshqarishning muhim bir vazifasi va tarkibiy qismidir. Strategik rejalashtirish- reja tuzish- bo'lajak ish usullari, iqtisodiy trayektoriyani aniqlash, ya'ni belgilangan maqsadga olib boruvchi rejalar mazmuni va ketma-ketligi hamda belgilangan so'nggi natijalarni o'rnatishdir, bashoratdan farqli ravishda reja (taxmin), gepoteza, taxmin emas, balki vazifa belgilashdir.

Strategik iqtisodiy rejalar, odatda, amalga oshirish natijasida erishiladigan ko'rsatkichlar to'plami hamda qabul qilingan strategik qarorlar bajarilishini aks ettiradi. Bozor iqtisodida, hukumat markaziy organlari tomonidan yuqoridan pastga yo'naluvchi va yetkazuvchi davlat direktiv rejalarini ommabop emas.

Har bir xo'jalik boshqaruvchi subyekt, o'z strategik ish rejasini o'zi tuzishga haqli, ya'ni o'z-o'zini rejalashtirish ro'y beradi. Firmalar o'z faoliyatini juda puxta rejalashtiradi. Ular boshqalarga nisbatan qisqa muddatli, kundalik rejalar bilan birga, 5, 10, 15 yillarga mo'ljallangan uzoq muddatli rejalarini ham ishlab chiqadi, qabul qiladi va bajaradi. Strategik reja tarkibi quyidagi manbalardan iborat:

- tashkilot vazifasi, shakli va topshirigi;
- maqsadlar;
- bozorning boshlang'ich vaziyati;
- tashkilot strategiyasiga ta'sir etuvchi omillariga ba'ho;

- xavf va imkoniyatlar bahosi;
- xo‘jalik portfelining rivojlanish strategiyasi;
- tartibga solinadigan omillardagi strategik o‘zgarish;
- kutilayotgan moliyaviy natijalar.

Ko‘pincha direktiv xarakterdagi emas, balki bashorat (strategik) xarakteridagi davlat rejalari ham tuziladi - tegishli rejalarni indikativ deb ataladi.

Iqtisodiy dasturlar, ba‘zan maqsadli deb ataladigan, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilishni ifodalaydi: kompleks (strategik rejalashtirishning oliy shakli).

Dasturning bunday turi rejaga yaqin, ammo bu reja emas, negaki dastur, birgina muammoni yechishga, birgina maqsadga erishishga (alohida strategiyani ishlab chiqish) yo‘llangan.

Dastur, rejaga nisbatan, yanada batafsilroq ishlab chiqiladi, unda vazifalar, maqsadlar aniq ifodalanib, belgilangan maqsadga olib boruvchi barcha asosiy tadbirlar, ish usuli ko‘zda tutiladi. Ularni amalga oshirish muddati va ijro etuvchilar, zaruriy manbalar va ularni olish manbai aniqlanadi. Mamlakatning zaruriy, jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tezlik bilan yechish uchun, boshqalarga nisbatan ko‘proq kompleks iqtisodiy dasturlardan foydalaniladi. Makroiqtisod strategik rejalashtirishdagi dastur deganda, ilmiy tarzda oldindan ko‘rish – tadbir maqsadlari va tizimlarini to‘g‘ri aniqlashga asoslangan va manbalari, bajarilish muddatlari hamda amalga oshiruvchilari bo‘yicha o‘zaro kelishilgan bu maqsadlarga erishishni ta‘minlaydigan 5, 10, 15 va undan ko‘proq yildan keyingi aniq muddatli qandaydir muayyan obyekt boshqaruvining holati tushuniladi. Maqsadli kompleks strategik dasturlar strategik rejalashtirish jarayonida ishlab chiqilayotgan dastur tizimida alohida o‘rin egallaydi.

2. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi

Strategik rejalashtirish ikki bosqichdan iborat: ishlab chiqarish prognozlarini (gepotez) va strategik rejalar.

Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi 4-chizmada ko'rsatilgan.

qaror nazariyasini ishlab chiqarish o'tgan asrning 50-yillarda harbiy taktik operatsiyalarni avtomatlashtirish tariqasida bajarilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixiy rejada harbiy zaruriyat, aviatsiya yoki raqamli hisoblash mashinalariga o'xshash yangi texnik vositalar bilan birga, ko'pincha yangi tashkiliy shakllar va jamoat jarayoniga yangicha yondashish fikri kiritilgan. Natijada bunday mukammallashtirish tinchlik maqsadida qo'llanishga moslashgan.

Yangilikning bunday turi harbiy qo'mondonlik (ya'ni boshqaruv) sohasida ham paydo bo'ldi. Zarurat bo'yicha, harbiy harakatlarni kengaytirish tezlanishiga qarab, taktik qarorlar bilan birga (harbiy operatsiyalar borishining kundalik boshqaruvi) strategik rejalashtirishga nisbatan (taktik qarorlarni qabul qilishda, bo'lishi mumkin hodisalarni ko'zda tutuvchi, ish usulini belgilovchi va oldindan o'rnatilgan tartibi) e'tibor o'zgarishi yuz berdi.

4-chizma. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi

Bu vazifani amalga oshirish uchun, «taktik mulohaza va tajriba» harbiy qarorlarini formal qoida va muolaja (protsedura) kompleksida qayta qurish kerak. Bu qayta qurish, majburiydir, chunki zamonaviy harbiy harakatlar sur'ati inson organizmining ta'sirlanish imkoniyatidan oshadi. Butun o'n yilliklar davomida minglab kishilar, taktik harbiy qarorlar zaminida yotuvchi, harbiy qarorlarni qabul qilish va tezkor operativ harakatlarni avtomatlashtirish jarayonini o'zgartirish bilan mashg'ul edilar. Shu bilan birga, shu narsa aniq isbotlangan ediki, puxtalik va rasmiyatchilik bilan tanlangan qoidalar, kishilar mulohazasi orqali yaratilgan va shoshilinch sharoitda qabul qilingan yoki harbiy qo'mondonlarning yetarli bo'lmagan amaliy tajribasi asosida yoki nihoyat epchillik bilan ajralib turmaydigan yirik tashkilotlar ta'siri ostidagidan ko'ra, ko'proq mukammallashgan qisqa muddatli taktik qarorlarni ta'minlashi mumkin bo'ldi.

«Mashina mening harbiy ma'lumotim va jangovor tajribamni almashtirishga qurbi yetmaydi» bayonoti ostida, 1950 yil harbiy-taktik qarorlar qoidasini formatlashtirish ustida, ish boshida uchratgan o'sha kishilarni o'zi, 10 yildan so'ng harbiy - jangovor farmoyishni avtomatik ravishda berishni eng yaxshi va mutlaqo to'g'ri varianti sifatida qabul qilishdi. Bunday yo'l bilan olingan amaliy tajriba qaror qabul qilish va «yetarli ma'lumotli mulohaza» deb ataladigan atama mazmunini aniqlashda asos bo'ladi.

Bu qarorlardan zarurligi uchun, hozirgi vaqtda, boshqaruv tizimi va xususan, uning asosiy funksiyasi – rejalashtirishni o'rganish uchun foydalanish mumkin.

Harbiy ish sohasida ham, hozirgi vaqtda xo'jalik rahbarlari tomonidan qabul qilinadigan qaror amaliyoti, asoslangan qat'iy ma'lum bazis mavjudligiga biz ishonamiz. Ularning qarori «iroda erkinligi» to'liq muomala bo'lmasdan, balki atrofdagi sharoitlar bilan qat'iy o'zaro bog'langandir. Modomiki, shunday ekan, bu qarorlarni tartibga solishda, qonun o'rnatish va tizimlarni ishlab chiqish hamda iqtisodiy ahvoliga ushbu qonun ta'sirini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Albatta, tuzilishning dinamik tabiati, birgina rejalashtirishning o‘ziga xos modellari kirishini mushkullashtiradi. Shuning uchun, strategik rejani turli elementlarini o‘rganishga kirishishdan oldin, 5-chizmada ko‘rsatilgan, strategiyali rejalashtirish jarayoni modelini ko‘rib chiqamiz.

Тузилма	Тузилман	Тузил	Кучли	Стратег	Стратег	Страте	Страт
-нинг	инг	ма	ва заиф	ияли	ия-ни	гия-ни	е-
шакл ва	мақсади	таҳли	томонла	муқобил	танлаш	амалга	гияга
вазифас		ли ва	рни	лик		ошири	баҳо
и		баҳос	текшири	таҳлили		ш	
		и	ш				

5-chizma. Strategiyali rejalashtirish jarayoni

5-chizmadan ko‘rinib turibdiki, strategiyali rejalashtirish jarayoni quyidagi bloklardan iborat: tuzilma shakli va vazifasini ishlab chiqish, tuzilma maqsadlari, tashqi muhit tahlili va bahosi, xususiy tuzilmaning kuchli va zaif tomonlarini tekshirish, strategik muqobil tahlil, strategiyani tanlash.

Shuni aytish kerakki, umumiy strategiyali rejalashtirishni, nizoli va doimo o‘zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, doimiy tuzatilishi muqarrarligini tushungan holda, tuzilma faoliyatini uzoq davom etadigan davrga yo‘naltirilgan dastur sifatida qarash zarur.

Strategik dasturning mazmuni

Strategik dasturning mantig‘i va mazmuni uning quyidagi tuzilish elementlarini ochib beradi:

- rejalashtirilgan davrda, strategik rejalashtirish subyektlari ketidan boruvchi, maqsadlar yoki maqsadlar tizimini aniqlash va ta'riflash (bu strategik rejalashtirish mantig'ining jo'natish joyi, uning bosh g'oyasi);

- strategik rejalashtirish obyekti rivojlanishi boshlang'ich darajasining rejalashtirilayotgandan avvalgi davrda va erishilgan darajadagi parametrlarini aniqlash hamda bu davr boshidagi tuzilish analizi;

- tegishli strategik rejalashtirish obyektlarining harakat qilishi natijasida rejalashtirilayotgan davrda jamiyat ehtiyoji hajmi va tuzilishini aniqlan;

- rejalashtirilayotgan davr boshida va rejalashtirilayotgan davrda yangi yaratilayotgan, mavjud bo'lgan manbalarning hajmi va tuzilishini aniqlash;

- vaqtinchalik qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish yo'li bilan ular orasidagi nomuvofiqlik, ehtiyojlarni tartibga solish asosida va boshqarmali qarorlarni strategik bashorat shaklida tayyorlash orqali turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim osti ehtiyojlari va manbalarini moslashtirish hamda muvozanatga keltirish.

Strategik rejalashtirishning mazmuni va mohiyatini aniqlash orqali rejalashtirilayotgan davrda tegishli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga qo'yiladigan maqsadlarning vujudga kelish jarayoni asosiy o'rin egallashi kelib chiqadi.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadlar deganda, kelajakning ma'lum fursatida rejalashtirish tegishli subyekti harakatining istalgan holati yoki natijalari tushuniladi.

Vazifalar - strategik rejalashtirish davri mobaynida, vaqtning ma'lum fursatida erishilishi ma'qul bo'lgan maqsadlardir.

Rejalashtirilgan davr mobaynida vazifalar amalga oshirilmasligi mumkin, ularning amalga oshishini hamma vaqt ham kutib bo'lmaydi.

Erishib bo'lmaydigan, lekin cheklanmagan holda yaqinlashish mumkin bo'lgan maqsad ideal deb ataladi.

Strategik rejalashtirishning har qanday subyekti, maqsad va vazifalarning vujudga kelish bosqichida quyidagilardan iborat:

1. Rejalashtirilayotgan tashkilotning vazifalarini aniqlashni maqsad qilib qo'yishi so'nggilarning o'ziga xos bajarilish jadvaliga erishish imkonini beradi.

2. Har birining bajarilish jarayoni baholash mezonini ishlab chiqish va barcha maqsadlarni aniq ta'riflashni oldindan ko'ra bilish.

Maqsadlar orasidagi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar, mojarolarni inkor etish (yoki ularni yechish uchun vositalarni ishlab chiqish), ya'ni bir maqsadning yechimi boshqasining yechimiga qarama-qarshi bo'lsa, uni yechish yo'llarini izlash.

Strategik rejalashtirishda makrodarajada amalga oshirilayotgan vazifa va maqsadlar hukumatning dasturga oid ko'rsatmalarida belgilanadi va mamlakatning davlat ishchi organlari tayyorlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida tarkib topadi.

Konsepsiya - global maqsadlarni ta'riflashda ifodalangan bashoratlar, loyihalar, strategik, maqsadli, kompleks dasturlarning umumiy ma'nosi va rejaviy davrda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish ustunligi hamda ularga erishish usul va shakllarining zaruriy yo'llarini aniqlashdir.

O'zbekiston Respublikasida konsepsiya ishlab chiqish jarayonida tegishli boshqaruv subyektlarining dasturiy ko'rsatmalaridan tashqari quyidagi tayyorlov hujjatlaridan foydalaniladi:

- a) ilmiy-texnik jarayon va uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari;
- b) iqtisodiy o'sish va tarkibiy siljish;
- v) tabiatdan foydalanish ko'lamining o'zgarishi va hayot kechirish sifati (ekologiya);
- g) tashqi sharoitlarning o'zgarishi;

qisqacha xulosalar

Strategik rejalashtirish, prognozlar asosida qabul qilinadigan qarorlarni koʻzda tutadi.

Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

Strategiyani ishlab chiqarish yoki maqsadga muvofiq amalga oshiruvchi yoʻlni izlash; maqsadlarning tashkil topishi; vositalarni tanlash.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadlar kelajakning maʼlum fursatida rejalashtirish tegishli subyekti harakatining istalgan holati yoki natijalari tushuniladi.

Strategik dastur oʻz ichiga strategik rejalashtirishning maqsad va maqsadlar nizomini aniqlash, obyektini rivojlantirish parametrlarini aniqlash, jamiyat ehtiyojini hajmini aniqlash, resurslar hajmini aniqlashni oladi.

Strategik rejalashtirish maqsadi deganda, maʼlum davrda subyekt harajatining istalgan holatini tushuniladi.

Strategik rejalashtirish oʻz ichiga reja tuzimi ish usullari, iqtisodiy terminlarni obyektlash yaʼni bilingan maqsadga olib boruvchi rejalar hamda boshqa soʻnggi natijalarni oʻrganish va aniq vazifalarni belgilashni oladi.

Asosiy adabiyotlar

1. И.А.Каримов. «Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир». Ўзбекистон овози. 2005 й. 29 январ.
2. Каримов И.А. «Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз» Ўзбекистон Тошкент 2001.
3. Каримов И.А. «Эришилган марраларимизни мустаҳкамлаб, ислохотлар йўллари излаб бориш асосий вазифа» Халқ сўзи 2004й. 10 феврал.
4. И.А.Каримов процветание Родини-каждый из нас в ответе Т.Узбекистан. 2001
5. Кравченко Р.С. Корпоративное управление: обеспечение и защита права акционеров на информацию – М.: Спарк, 2002.
6. Зуб А.Т. «Стратегический менеджмент теория и практика» Учебное пособие 2-е из-д, ИСПР.доп. _ М.: Аспект Пресс, 2004.
7. Дадабоев Ю.Т., Мамутова Х.Ш., Стратегическое планирование – Фергана, 2000.
8. Якубов И.О., Абдусаттарова Х.М., Очилов К.Т. Ситдиқова Л.А. Стратегик режалаштириш. Ўқув қўлланма. Т.: ЎЗР Ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004.